

SHVITS ZOTLI SIGIRLARNING MAHALLIY SHAROITGA MOSLASHUVI VA SUT MAHSULDORLIGINI QIYOSIY TAHLILI

Umirzakov Izzatillo Saloxiddin o'g'li

Andijon qishloq xo'jalik va agrotexnologiyalar instituti, Assisenti

Annotatsiya Ushbu maqolada Shvits zotli sigirlarni iqlimlashtirish jarayoni, ularning biologik xususiyatlari, mahsuldorligi hamda kasalliklarga chidamliligi xorijiy va mahalliy ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu zot O'zbekiston sharoitida yaxshi moslashadi va sut mahsuldorligi bo'yicha ijobiy natijalar ko'rsatadi. Maqolada Shvits sigirlarining fiziologik va reproduktiv xususiyatlari, sut tarkibi hamda kasalliklarga chidamliligi bo'yicha ilmiy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Shvits sigirlari, iqlimlashtirish, sut mahsuldorligi, reproduktiv xususiyatlar, kasalliklarga chidamlilik.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ADAPTATION OF SWISS CATTLE TO LOCAL CONDITIONS AND MILK PRODUCTION

Umirzakov Izzatillo Salokhiddin ugli,

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology, Assistant.

Annotation. This article analyzes the process of acclimatization of cows of the Schwyz breed, their biological characteristics, productivity and resistance to diseases on the basis of foreign and domestic data. Studies show that this breed adapts well in the conditions of Uzbekistan and shows positive results in terms of milk productivity. The article provides scientific analysis of the physiological and reproductive characteristics of Schwyz cows, milk composition and disease resistance.

Keywords: Schwyz cows, acclimatization, milk productivity, reproductive characteristics, disease resistance.

Kirish: Shvits zotli sigirlar dunyoning turli mintaqalarida yetishtiriladi va yuqori mahsuldorligi bilan mashhur. Veterinariya ilmida chorva hayvonlarining yangi ekologik sharoitlarga moslashuvi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Iqlimlashtirish jarayoni fiziologik moslashuv, metabolik o'zgarishlar va immunologik moslashuvni o'z ichiga oladi. Shvits zotli sigirlar issiq iqlim sharoitiga yaxshi moslashuvchi, yuqori sut mahsuldorligi bilan ajralib turuvchi zot hisoblanadi. Ushbu maqolada Shvits sigirlarini iqlimlashtirish jarayoni, ularning biologik xususiyatlari, mahsuldorligi hamda kasalliklarga chidamliligi xorijiy va mahalliy ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot Andijon viloyatida kichik fermer xo'jaliklarida xorijdan keltirilgan shvits zotli sigirlar olib borilgan. Tajribada 10 bosh Shvits zotli sigirlar ishtirok etdi. Hayvonlarning umumiy fiziologik ko'rsatkichlari, metabolik holati va reproduktiv funksiyalarining o'zgarishlari kuzatildi.

Natijalar va muhokama: Shvits sigirlarining biologiyasi va ekologiyasi

Shvits zotining umumiy tavsifi. Shvits sigirlari o'rtacha yirik, jussasi baquvvat, suti yog' miqdori yuqori bo'lgan sigirlar sirasiga kiradi. Ushbu zot quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Tashqi ko'rinishi: Jigarrang yoki kulrang tusdagi jun qoplami, kalta shoxlari bor.

Vazni: Urg'ochi sigirlar 550-700 kg, buqalar esa 900-1200 kg gacha bo'lishi mumkin.

Sut mahsuldorligi: Bir laktatsiya davrida (305 kun) 4000-6000 kg sut beradi, ayrim hollarda 8000 kg gacha yetishi mumkin.

Sut tarkibi: Sutning yog' miqdori 3,8-4,2%, oqsil miqdori esa 3,2-3,5% orasida bo'ladi.

Moslashuvchanlik: Salqin va issiq iqlim sharoitlariga tez moslasha oladi, oziq-ovqatga talabchan emas. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu zot o'rtacha

haroratga yaxshi moslashadi va sovuq iqlim sharoitlarida ham mahsuldorligini saqlab qoladi.

Transport va adaptatsiya – Sigirlar uzoq masofadan olib kelinganda stressga duch keladi, bu esa sut mahsuldorligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, dastlabki kunlarda ularning harakati cheklangan bo'lishi va maxsus oziqlantirish tartibi joriy etilishi lozim.

Iqlim omillari – Mahalliy iqlim sharoitiga moslashish uchun sigirlar issiqlik va sovuqqa chidamliligini oshirish maqsadida bosqichma-bosqich yangi sharoitga o'rgatiladi.

Oziqlanish tizimi – Yangi muhitda sigirlar uchun maxsus oziqlantirish rejimi ishlab chiqiladi. Asosan, yem-xashak tarkibi bo'yicha moslashtirilgan ratsion tuziladi.

Veterinariya nazorati – Yangi muhitda kasalliklarga qarshi immunitet mustahkamlash maqsadida maxsus profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Sut mahsuldorligi va go'sht sifati

1-jadval

Manba	O'rtacha yillik sut mahsuldorligi (kg)	Yog' miqdori (%)
O'zbekiston (mahalliy fermerlar)	3800-4200	3.8-4.2
Germaniya (xorijiy tadqiqotlar)	5000-5500	4.0-4.5
AQSh (xorijiy tadqiqotlar)	4800-5300	4.2-4.7

O'zbekistonning mahalliy fermer xo'jaliklarida boqilayotgan Shvits zotli sigirlar yillik o'rtacha 3800-4200 kg sut berib, uning yog' miqdori 3,8-4,2% atrofida bo'lgan. Germaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bu zotning sut mahsuldorligi

ancha yuqori bo‘lib, o‘rtacha 5000-5500 kg sut ishlab chiqariladi, yog‘ miqdori esa 4,0-4,5% ni tashkil qiladi. AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlarda esa Shvits sigirlarining yillik sut mahsuldorligi 4800-5300 kg bo‘lib, uning yog‘ miqdori 4,2-4,7% ni tashkil etgan. Ushbu ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Shvits zotli sigirlarning sut mahsuldorligi iqlim, oziqlantirish tizimi va parvarish sharoitlariga bog‘liq ravishda farqlanadi.

Iqlimlashtirish fiziologik jarayonlari **2-jadval**

Davr	Tana harorati (°C)	Moslashish darajasi
Dastlabki 3 oy	$39,2 \pm 0,3$	O‘rtacha
6 oy	$38,9 \pm 0,2$	Yaxshi
12 oy	$38,8 \pm 0,2$	To‘liq moslashgan

Tadqiqot davomida Shvits zotli sigirlarning iqlimga moslashish jarayoni kuzatildi. Dastlabki uch oy ichida ularning tana harorati $39,2 \pm 0,3^{\circ}\text{C}$ bo‘lib, yurak urish chastotasi 85 ± 4 zarb/minutga teng edi. Ushbu bosqichda hayvonlarning moslashish darajasi “o‘rtacha” deb baholandi.

Oltinchi oyga kelib, tana harorati $38,9 \pm 0,2^{\circ}\text{C}$ gacha pasaydi va yurak urish chastotasi 80 ± 3 zarb/minut bo‘ldi. Bu bosqichda moslashish darajasi “yaxshi” deb baholandi.

O‘n ikkinchi oyga kelib, sigirlarning tana harorati $38,8 \pm 0,2^{\circ}\text{C}$ darajasiga tushdi va yurak urish chastotasi 78 ± 3 zarb/minut bo‘ldi, natijada ularning to‘liq moslashgani aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar Shvits sigirlarining Andijon viloyati iqlim sharoitlariga asta-sekin moslashishini ko‘rsatadi.

Kasalliklarga chalinish va chidamliligi:

Shvits zotli sigirlar mastit va boshqa yuqumli kasalliklarga kam chalinishi bilan ajralib turadi. Xorijiy fermer xo‘jaliklarida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra ham ushbu zot o‘rtacha 15% kamroq kasallikka chalinishi aniqlangan.

Reproduktiv faoliyat va homiladorlik fiziologiyasi

3-jadval

Fasl	Urug‘lantirish samaradorligi (%)	Tug‘ilish darajasi (%)
Bahor	92	92
Yoz	89	89
Kuz	91	91
Qish	92	92

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Shvits zotli sigirlarning urug‘lantirish samaradorligi va tug‘ilish darajasi yil fasllariga qarab o‘zgarib turadi. Bahor va qish fasllarida urug‘lantirish samaradorligi eng yuqori bo‘lib, 92% ni tashkil etgan, tug‘ilish darajasi ham xuddi shu ko‘rsatkichda qayd etilgan. Yoz oylarida esa urug‘lantirish samaradorligi biroz pasayib, 89% ga tushgan, tug‘ilish darajasi ham aynan shu ko‘rsatkichda bo‘lgan. Kuz faslida esa urug‘lantirish samaradorligi va tug‘ilish darajasi 91% ni tashkil qilgan. Ushbu natijalar Shvits zotli sigirlarning yil fasllaridan qat’i nazar barqaror reproduktiv ko‘rsatkichlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa:

Veterinariya tekshiruvlari va fiziologik kuzatuvlar natijalariga ko‘ra:

1. Shvits sigirlarining iqlimlashtirish jarayoni 6 oy ichida boshlanib, 12 oy davomida to‘liq amalga oshdi.
2. Sut mahsuldorligi yil davomida barqaror bo‘lib, maksimal daraja yozda 4042 kg bo‘ldi.
3. Reproduktiv tizim faoliyati yil davomida me’yorda saqlanib qoldi.
4. Metabolik moslashuv (kortizol darajasining pasayishi, normal yurak urish chastotasi) to‘liq kuzatildi.

Shvits zotining xorijiy tajribalar asosida mahalliy sharoitda rivojlanishi chorvachilik sohasida katta imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Яковенко А. М., Антоненко Т. И., Селионова М. И. Биометрические методы анализа качественных и количественных признаков в зоотехнии: учебное пособие //Ставрополь: Агрус. – 2013. – Т. 91.
2. Nosirov U.«Qoramolchilik» “ Zarafshon” nashriyoti DK Toshkent 2001.
3. Базаров М. и др. ВЛИЯНИЕ СЕЗОНА ГОДА НА КАЧЕСТВЕННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СЕМЕНИ БЫКОВ ЧЕРНО-ПЕСТРОЙ ПОРОДЫ И ШВИЦКОГО СКОТА ДО И ПОСЛЕ ЗАМОРАЖИВАНИЯ //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 21. – С. 938-943.
4. Djumanov S., Umirzakov I. ПРИЧИНЫ, ПАТОГЕНЕЗА И МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ СКРЕТЫЙ МАСТИТА У ДОЕНИЕ КОРОВ //Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz). – 2023. – Т. 3. – №. 3.
5. O.Sh. Matyakubo, , M.A. Bazarov, I.A.Sobirov , I.Ya. Eshmatov . TURLI GENOTIPLARNING O‘SISH XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI. SaMVMi . Konfrensiya . 12-13.05.2023
6. Базаров М., Умирзаков И., Махмудова К. СВЯЗЬ МЕЖДУ МОЛОЧНОЙ ПРОДУКТИВНОСТЬЮ, ВОСПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ СПОСОБНОСТЬЮ И ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬЮ ПРОДУКТИВНОЙ ЖИЗНИ КОРОВ ЧЁРНО-ПЁСТРОЙ ПОРОДЫ В УСЛОВИЯХ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ //Экономика и социум. – 2024. – №. 12-1 (127). – С. 695-704.